

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNI TARBIYALASHDA HADIS ILMIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchi

Аннотация: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyalashda hadis ilmidan foydalanish metodikasini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - hadislar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axloqiy va ma'naviy tarbiyasini takomillashtirish, ularga pedagogik faoliyatda qo'llash mumkin bo'lgan yangi metodik yondashuvlarni taqdim etiladi. Hadis ilmi musulmon madaniyati va axloqining muhim qismidir. Ushbu ishda hadislarining tarbiyaviy jihatlari chuqur o'rganilib, ularning zamonaviy ta'lim tizimida qanday qo'llanishi mumkinligi yoritib o'tilgan. Tadqiqot hadislarining pedagogik qimmatini ochib berish orqali ilmiy yondashuvlarni kengaytiradi va tarbiya usullarini boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodika milliy va diniy qadriyatlarni saqlash va ularni yosh avlodga yetkazishda muhim xulosa va takliflar keltirildi.

Калит со'з: tarbiya, hadis, milliy, zamonaviy, metodika, ilmiy, ajdod, qadriyat, an'analar, pedagog

Annotation: This graduation work is devoted to the study of the method of using the science of hadith in the education of primary school teachers. The main goal of the research is to improve the moral and spiritual education of primary school teachers through hadiths, and to provide them with new methodological approaches that can be used in pedagogical activities. Hadith science is an important part of Muslim culture and ethics. In this work, the educational aspects of hadiths are deeply studied, and how they can be used in the modern education system is highlighted. By revealing the pedagogical value of hadiths, the research expands scientific approaches and serves to enrich educational methods. Also, this methodology has brought important conclusions and suggestions for preserving national and religious values and conveying them to the younger generation.

Keywords: education: hadith, national, modern, methodology, scientific, ancestor, value, traditions, pedagogue

Imom Al Buxoriy hazratlari jamlagan "Sahihi Buxoriy" kitobida zikr etilgan hadisi sharifda aytilganidek, "Albatta, amallar niyatga bog'liqdir"¹.

Sh.M.Mirziyoyev

¹ <https://uzreport.news/politics/>

KIRISH. Ta'lim-tarbiya masalasi jamiyatda insonning paydo bo'lishi davridanoq shakllana boshlagan va o'zining turli-tuman shakllari va yo'nalishlari asosida rivojlangan.

Xalqimiz uchun ma'naviyat elchilari hisoblanmish Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy as Samarqandiy Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy kabi ko'plab muhaddislar yetishib chiqqan. Buyuk allomalarning yaratgan asarlarida odob-axloq va ilmga munosabatga alohida e'tibor berilgan. Ajdodlarimizning nafaqat asarlari, balki ularning o'zlari ham ta'lim va tarbiyada barchaga o'rnak bo'la oladigan insonlar sifatida mashhur bo'lganlar.

“Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta'kidladi Prezidentimiz.

Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi.² 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.³ Shunday ekan yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida buyuk ajdodlar merosini o'rganmoqliklari juda muhimdir.

O'qituvchining milliy qadriyatlar asosida ta'lim berishdagi samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari va ularning mohiyati haqida xorijlik mutaxassislardan “Qadriyat” tushunchasi ilmiy muomalaga I.Kant tomonidan axloq (erkinlik) va tabiat (zaruriyat) sohasiga qarama-qarshi qo'yilib kiritilgan. I.Kantning fikriga ko'ra, qadriyat bu qat'iy talab, qonun, buyruq (imperativ), shaxsiy prinsipdan (maksimum) farqli o'laroq, shartsiz, barqaror majburiyatni ifodalaydi. Mahalliy ilm-fanda qadriyat masalalariga L. P. Buyeva, V. V. Vodzinskoy, O. G. Drobnitskiy, M. S. Kagan, A. A. Ruchka, V. P. Tugarinov va boshqalarning falsafiy asarlarda katta e'tibor beriladi. M. Scheler qadriyatlarining tabiati va mohiyati to'g'risida bilimlarni oshirishga sezilarli hissa qo'shdi, va uning aksiologiyasi hali ham qadriyatlar nazariyasining namunasi hisoblanadi⁴.

² Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan, 16.06.2017-yil

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son

⁴ <https://uniwork.buxdu.uz/resul>

Markaziy Osiyodagi olimlar, Imom Buxoriyning “al-Jome’ as-sahih” – (“Ishonarli hadislar to’plami”) asaridir.⁵ Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al- mufrad,⁶ Imom G’azzoliy “Ihyou ulumid-din”,⁷ “Al-Madina al-Fadila” (Ideal Shahar),⁸ Faqih Burhoniddin Marg’inoniyning asarlari “Hidoya”,⁹ Imom Termiziy asarlari “Sahiyh at-Termiziy”, A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq”,¹⁰ asarlari orqali nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o’zni tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo’l-yo’riqlar, pand-nasihat va o’gitlar aks ettirilgan. Ko’p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo’shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o’rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan islom sivilizatsiyasi markazi, islom akademiyasi, mir arab oliy madrasasi, imom Buxoriy va imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o’rganish va targ’ib qilishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, dunyoda ro’y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Xalqimizga azal-azaldan xos bo’lgan ma’rifatparvarlik, bag’rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ’ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining o’rni va ishtirokini oshirish hamda 2017 — 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasiga muvofiq:

“jaholatga qarshi ma’rifat” ulug’vor g’oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma’rifiy faoliyatni jadal tashkil etish; Islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo’shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o’rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

Hadis (arabcha: xabar, gap, yangilik) — Muhammad alayhissalom aytgan so’zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to’g’risidagi rivoyat. Islom dinida Qur’ondan keyin 2-manba hisoblanadi.

⁵ <https://www.bukhari.uz/>

⁶ 8. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al- mufrad. T.: «Meros», 1991

⁷ hyou ulumid-din. O’limdan so’ng. Imom G’azzoliy www.ziyouz.com kutubxonasi

⁸ Abu Nasir al Farabi Translator: Richard Walzer Publisher: Great Books of the Islamic World Pages: 571 Binding: Hardcover

⁹ <https://sammuslim.uz/oz/articles/burhoniddin-al-marginoniy>

¹⁰ SHUKURULLO MARDONOV UMIDA ZOKIROVA PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI O’quv qo’llanma TOSHKENT “ISHONCHLI HAMKOR” 2021, 104-105-b.

Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. hadis 2 turga — hadisi qudsiy (ma'nosi alloh taoloniki, aytilishi rasululloh tomonidan bo'lgan hadislar) va hadisi nabaviyga bo'linadi. hadislar e'tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo'linadi:

- 1) sahih (ishonchli);
- 2) hasan (yaxshi);
- 3) zaif

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga barcha fanlarni nazariy ma'lumotlarini berish bilan birgalikda yosh avlodga tarbiyaning to'g'ri berilishi juda muhim sanaladi. tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya orqali sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sosiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan foydalanadi.

Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jaraxyoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Tarbiya uchun poyedevor bolalarda boshlang'ich sinflardayoq qo'yiladi. Boshlang'ich sinflarda olingan tarbiyaga asosan bolada boshqa sifatlar ham shakllana boshlaydi. Demak insonning tarbiyali bo'lishi tom ma'noda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining zimmasiga yuklangan desak noto'g'ri bo'lmaydi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashda, ayniqsa, hadis ilmining ahamiyati judayam kata. Bo'lajak o'qituvchilar uchun aqliy tarbiya olishda hadislardan foydalanish samarali hisoblanadi. Aqliy tarbiya o'qituvchilarning bir qator sifatlarini yuzaga chiqaradi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tkazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqti-

vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi g'oyalar mujassamlangan.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada o'qituvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir. amaliy ahamiyatga ega".